



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI

**KOMPYUTER ILMLARI VA
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI**
XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI
1-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
1-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 355-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Изучение топонимии важно не только для понимания прошлого, но и для формирования национального самосознания, сохранения культурного наследия и идентичности народов Средней Азии.

Сегодняшний этап характеризуется стремлением к исторической справедливости и национальной аутентичности, что делает изучение топонимии особенно актуальным для понимания современных процессов в Центральной Азии.

Список использованной литературы:

1. Ботвинов А.В. *Топонимия Средней Азии: историко-культурный аспект*. — М.: Восточная литература, 2008.
2. Саидов А.Х. *Этнокультурные аспекты топонимики Узбекистана*. — Ташкент: Фан, 2015.
3. Dani, A.H. & Masson, V.M. *History of Civilizations of Central Asia*. — UNESCO Publishing, 1992.
4. Кузнецова И.В. *Советская топонимическая политика в Средней Азии*. // Вестник географии, 2013, №4.
5. Акрамова Ш.Р. *Переименование городов в Узбекистане: история и современность*. // Научный вестник Узбекистана, 2020.
6. Саидов А.Х. *Топонимика Узбекистана: история и современность*. — Ташкент: Фан, 2018.

ABU NASR FOROBIYNING AXLOQ ILMIGA OID QARASHLARIDA ADOLAT VA IJTIMOY UYG‘UNLIK MASALASI

Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
islomxosilmurodov@jbnuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Nars Forobiyning axloqiy qarashlarida adolat, axloq va ijtimoiy uyg'unlik haqidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi va uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Forobiyning axloq falsafasi to‘g‘risidagi qarashlari jamiyat hayotining barcha sohalariga tadbiiq etilgan va yosh avlod ma’naviyatining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Axloq, xulq, odob, qadriyat, aksiologiya, evdomonizm, bashorat, axloq tamoyili, baxt-saodat.

Ma’lumki, uyg‘onish davrining ma’naviy madaniyatida inson axloqi, xulq-odobi masalalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Chunki insonni tashqi muhitdan, tirik jonivorlardan farq qilib turuvchi hislati-aql bilan bir qatorda uning axloqidir. Shuning uchun axloq haqida fikr yuritish insonni, insoniylikni o‘rganish, insonshunoslikdan iborat edi. Uyg‘onish davrining mutafakkirlari, shoirlari xususan, Abu Nasr Forobiyo‘z ijodlarida axloq va axloqiylikka, uning turli sohalaridagi ko‘rinishlariga juda kata e’tibor berganlar.

Forobiyning adolat, axloq va ijtimoiy uyg'unlik haqidagi qarashlari insoniyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning falsafiy qarashlari orqali inson va jamiyatning ideal holatini izlash, adolatli va axloqli jamiyat qurishning yo'llari ko'rsatilgan. Forobiy adolatni insoniyatning eng oliy qadriyati sifatida ko'rib, uni jamiyatning asosiy ustuni deb hisoblagan. Uning fikricha, adolat – bu har bir insonning huquq va majburiyatlarini to'g'ri taqsimlanishi, hamda barcha ijtimoiy munosabatlarda tenglik va halollikni ta'minlashdir[1]. Forobiy adolatni ikki asosiy jihatdan ko'rib chiqadi:

1. Individual adolat – bu insonning o'ziga nisbatan adolatli bo'lishi, ya'ni o'zining aqliy, ruhiy va jismoniy qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishi. Farobiyning fikricha, inson o'zini bilishi, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi va ularni to'g'ri yo'naltirishi orqali adolatga erisha oladi. Uning fikricha, inson o'zining ichki dunyosida adolatni ta'minlash orqali tashqi dunyoda ham adolatli munosabatlar qurishi mumkin.

2. Ijtimoiy adolat – bu jamiyatda barcha a'zolar huquq va imkoniyatlar tengligi asosida yashashi. Forobiyning fikricha, adolatli jamiyat – bu barcha insonlar o'z qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishi va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan muhitdir. U adolatni ta'minlashda davlatning muhim rolini ta'kidlaydi. Farobiyning fikricha, davlat rahbari adolatli, dono va axloqiy jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Bunday rahbar jamiyatning barcha a'zolarining manfaatlarini hisobga olib, adolatni ta'minlashi mumkin.

Forobiy ijtimoiy uyg'unlikni jamiyatning muvaffaqiyati va barqarorligi uchun asosiy shart deb bilgan. Uning fikricha, ijtimoiy uyg'unlik – bu jamiyatning barcha a'zolarining o'zaro hamjihatlikda yashashi, bir-birining huquq va manfaatlarini hurmat qilishi va umumiy maqsadlar yo'lida birga harakat qilishidir. Farobiy ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash uchun quyidagi omillarni muhim deb hisoblagan:

1. Ma'rifat va bilim – Forobiyning fikricha, bilimli jamiyat uyg'un va barqaror bo'ladi. U insonlarning ma'rifat va bilim orqali o'zlarini va jamiyatni yaxshilashlari mumkinligini ta'kidlagan. Bilim insonlarni axloqiy jihatdan kamolotga olib chiqadi va ularni ijtimoiy mas'uliyatni anglashga undaydi.

2. Adolat va tenglik – jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlash orqali ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi va insonlar o'zaro ishonch va hamjihatlikda yashaydi. Forobiyning fikricha, adolatli jamiyatda barcha insonlar o'z qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishi va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shishi mumkin.

3. Axloqiy qadriyatlar – Forobiy axloqni ijtimoiy uyg'unlikning asosi deb bilgan. Uning fikricha, axloqli insonlar jamiyatning uyg'unligini ta'minlaydi va uning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Axloqiy qadriyatlar insonlar o'rtasida ishonch, hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Farobiyning fikricha, ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda davlat va rahbarlarning roli juda muhim. U davlat rahbarlarini adolatli, dono va axloqiy jihatdan mukammal bo'lishini talab qilgan, chunki ular jamiyatning boshqaruvchilari sifatida uning uyg'unligi va barqarorligini ta'minlashlari kerak [2].

Faylasuf axloq normalarini, aqillik bilan bog'laydi. Uningcha, aqilli inson har tomonlama, jumladan, axloqan mukammal bo'ladi. Inson kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganda aqliy bo'lishga ham harakat qilmog'i lozim. SHundagina u ezgu

niyatiga, ya'ni baxt-saodatga erishadi. Yaxshi fazilatga ega bo'lmoq uchun barcha ijobiy sifatlarni inson o'zida mujassamlashtirmog'i lozim. Xususan, inson jismoniy, axloqiy va aqliy jihatdan mukammal bo'lmog'i, ya'ni idrokli, ziyrak bilimdon, yaxshi muomalali, pok adolatli, insonparvar, kuli ochiq, o'z harakati va fikrida qat'iy, jasur, qo'rqish va o'zlikni bilmaydigan bo'lishi kerak

Bularning barchasiga bilim orqali erishiladi. Forobiy insoniy fazilatlarni ikkiga bo'ladi, ya'ni nazariy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar) fazilatlari. Inson bu fazilatlar yordamida baxt-saodatga erishadi.

Forobiyning fikricha, donolik bu baxt haqida bilim beradigan fazilat, muloxazalilik va baxt-saodatga erishish haqida bilim fazilatidir. Forobiy fazilat haqida ham fikr yuritib, u ezgulikka daxldor bo'lishdan vujudga keladigan mehr-oqibat tufayli hosil bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, kelajak sari dadil qadamlar bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Har bir kishi o'zining kelajagini buyuk bir maqsad shaklida bashorat va tasavvur qila olmasa uning bunyodkorlik faoliyati susayadi hamda asta-sekin o'z qiyofasini yo'qota boshlaydi. Forobiyning fikricha, insoniy vujudan maqsad — eng oliy baxt-saodatga erishuvdir, avvalo bu baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak keyin bu baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim bo'ladi. Demak baxtni qo'lga kiritish uchun inson faol, tashabbuskor bo'lishi kerak Forobiy baxt-saodatga ilm-ma'rifat orqali erishiladi, chunki u olamning mohiyati, mazmuni haqida to'liq mukammal bilim, kasb-hunar egallash uchun muhimdir, deb ta'kidlaydi.

Forobiy insonning kamolotga erishuvida ta'lim tarbiya nihoyatda zarurligini ko'rsatib o'tadi. U insonning ma'naviy hayotida onglilik va axloqiylikka e'tibor beradi. Forobiy inson axloqi uning faoliyatini belgilashda mezondir, ya'ni insonning ma'naviy boyligi, mazmuni uning axloqiy harakatlarida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi.

Forobiy insoniy sifatlarning barchasini odamlar va narsalar go'zalligi tarzida baholab, ularni maqsadga muvofiqlik va foydalilik tomonlari bilan uzviy bog'laydi. U «She'r san'ati haqida» degan risolasida badiiy faoliyatni o'ziga xos tarzda voqelikka taqlid qilishga qiyos etib, musavvirlik va she'riyat bir-biridan so'z va bo'yoq vositalarida ifodalanishi bilan farqlangan xolda, odamlar tasavvurlariga taqlid orqali ta'sir o'tkazishni maqsad qilib qo'yadi, deydi. Bu ta'sir kuchi tasavvur deyiladi hamda u tuyg'u va aql-idrok oraligida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri* (Al-Madina al-Fadila). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. – 45-bet.
2. Abu Nasr. *Fozil odamlar shahri* (Al-Madina al-Fadila). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
3. A.Raxmatov., J.B.Sulaymonov. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI. Volume 4, Issue 1. (2025). 283-285 betlar.
4. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati". Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil

etishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. 2022 yil. 250-bet.

5. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar. 2021 yil 10b.

6. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili". "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar" Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil. –B.549-552.

7. Xosilmurodov I.X. Informatsion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. "Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" xalqaro-ilmiy texnik konferensiya. 2022 yil. 61-64b.

8. Islom Xosilmurodov Falsafiy tafakkur uslubining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022 yil noyabr. 982-990b.

9. Xosilmurodov Islom, Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi. Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2023.04.15. 434-437b

10. Islam Hasilmurodov. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. 2022. Noyabr. 138-147b.

OKKOZIONALIZMLARNING BADIY MATNDAGI LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

PhD, dots. Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

xayrulla@jbnuu.uz

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnda okkazonalizmlarning badiiy matndagi o'rni hamda uning lingvistik xususiyatlari, okkazonalizmlar vositasida ijodkor asar qahramonlarining tabiati, ruhiy holati, hayot tarzi va ruhiy kechinmalarini ifodalashi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistika, lingvistik tahlil, matn, badiiy matn, uzual, okkazonal, denotat, semantika, ta'sirchanlik.

Barchamizga ma'lumki, obrazlilik, tasviriylilik, ekspressivlik kabi terminlar qo'llanishi jihatidan keng ma'nolidir. Ularning ba'zilari (obrazlilik, tasviriylilik) adabiyotshunoslik termini sifatida ham, tilshunoslik termini sifatida ham qo'llanadi. Mana shunday hodisalardan biri okkazonalizmlardir.

Tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sish-o'zgarishi – ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi tarzida ro'y beradi. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi o'laroq ham qo'llanadi. Bunday vaqtda bitta so'z bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi o'laroq xizmat qiladi.